



Google
Scholar



IN ALL AREAS

PEDAGOGS

international research journal

volume 2
issue -2
january 2022

www.pedagoglar.uz



PEDAGOGLAR.UZ

Scientific Research Center

PEDAGOGS

legal, medical, social, scientific journal

IN ALL AREAS

Volume-2, Issue-2, January–2022



Google
Scholar

ICI JOURNALS
MASTER LIST

TAHRIRIYAT | EDITORIAL

Editor in chief

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Executive Secretary

Abdurahmonov Boburjon

*He is mathematic teacher at**Uzbekistan District 49 Secondary School***Preparing for publishing**

Xoliqov Zokirjon Shavkatjon ugli

*CODEMI academy teacher***Bosh muharrir**

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Mas'ul kotib

Abdurahmonov Boburjon

*O'zbekiston tumani 49-umumiy o'rta**ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi***Nashrga tayyorlovchi**

Xoliqov Zokirjon Shavkatjon o'g'li

CODEMI akademiyasi o'qituvchi

TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

Inobatxot Mirzaraximova*Rishton tuman XTB mudiri***Umida Barzieva***Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarma metodisti***O'rinov Ahmadjon Qo'shaqovich***Farg'ona Davlat Universiteti, Matematika fanlari doktori, professor***Toshboltayev Muhammadjon***Toshkent mashinasozlik institute, Texnika fanlari doktori, Professor***Qodirov Nabijon O'lmasovich***O'zbekiston xalq ustasi, (usta kulol)***Turdiyev Azizbek Anvarovich***O'zbekiston madaniyat va san'at vazirligi, journalist***Ne'madaliyev A'zam Muhammadjonovich***Cyberlayn firmasi asoschisi, iqtisod fanlari nomzodi, PhD***Mohinur Saidova***Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***Sharifaxon Xakimova***Farg'ona tumani 4-maktab matematika fani o'qituvchisi*

TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

UZB: 712000. Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy
www.pedagoglar.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

ENG: 712000. Fergana region, Rishtan city, Park park street 24
www.pedagoglar.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

**PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERI: EHTIYOJ,
ZARURAT, NATIJA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5940380>

Xurramov Keldiyor Muradullaevich

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va
menejment" kafedrası o'qituvchisi.*

Ismatova Madinabonu Nurullo qizi

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti maktab
menejmenti yo'nalishi 1-bosqich 21/1 gurux talabasi.*

Qosimova Dilafruz Lazizbek qizi

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti maktab
menejmenti yo'nalishi 1-bosqich 21/1 guruxi talabasi.*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik ta'lim, klaster, tarmoq, menejment, jamiyat, millat, davlat.

Daraxtning ildizi qanchalik chuqur va tarmoqlangan bo'lsa, u shunchalik mustahkam, uning umri shunchalik davomli, hosili esa mo'l-ko'l bo'ladi. Insoniyat ko'p ming yillik taraqqiyoti davomida jamiyatni rivojlantirishning ta'lim, ilm va hunardan samaraliroq vositasini kashf qila olgan emas. Shu sababli ham ta'lim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omildir. Ta'lim o'z ildizlarini ilm-fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, bir so'z bilan aytganda, hayot bilan bog'lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishgan taqdirdagina o'z oldiga qo'ygan natijalarga erisha oladi, fan, ta'lim-tarbiya va iqtisodiyotning o'zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini ta'minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalariga tatbiq eta olgan davlat esa taraqqiyotga erishadi. Bu borada mamlakatimiz ta'lim sohasida salmoqli ishlar amalga

oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to'g'risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham dolzarb masalalar qatorida ilm-fan va ta'lim, ta'lim va ijtimoiy-iqtisodiy hayot munosabatlariga alohida urg'u berilganligi bejiz emas. Modomiki, ta'lim tizimining markazida inson kapitali, uni to'g'ri taqsimlash, undan samarali foydalanish va maqsadli yo'naltirish turar ekan, bunda maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimini jamiyatning barcha manfaatdor tomonlari, ta'lim jarayonining barcha subyektlari bilan yaxlit bir butunlikda bugungi kun talablari asosida tashkil etish hamda ta'limning to'liq uzluksizligiga erishish oldimizda turgan muhim vazifalardandir. Keyingi yillarda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlarni taraqqiyot ko'zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qayta ko'zdan kechirishni taqozo etmoqda. Istiqlool yillarida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilganini ta'kidlagan holda, aytishimiz joizki, maqsadlar va ularga erishish usul va vositalarini aniq belgilay olmaslik, mehnat bozori talablarini chuqur o'rganmaslik, undagi talab va taklifning nomuvofiqligi, odamlarning ijtimoiy ahvoli va xohish-istaklarini inobatga olmaslik oqibatida anchagina jiddiy xato va kamchiliklar ham kuzatildi. Natijada, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da nazarda tutilgan talablar to'liq ijrosini topmadi. O'tgan yillar davomida biz barcha sohalar kabi ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ham o'zimizga xos va mos yo'lni topishga ko'proq e'tibor qaratdik.

Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so'nggi yillarda ta'lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e'tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar 2017 yil 14 martdagi "O'rta maxsus,

kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 22 maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 8 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Qarorlarida o'z aksini topgan. E'tibor beradigan bo'lsak, mazkur qarorlarda uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha turlari qamrab olinganligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham ta'lim sohasini tubdan takomillashtirishga e'tibor qaratilgan. Ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3152 sonli Qarori bilan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil qilingan edi. Qaror bilan institutga viloyatdagi maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tarbiyachilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ayniqsa, aniq fanlar va chet tillari bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib bugungi kunda institut o'zining asosiy strategik yo'nalishlari va rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Toshkent viloyati ta'lim tizimida mavjud kamchiliklarni o'rganish va ularning tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik ta'lim yo'nalishlarini muvofiqlashtirish, istiqbolni rejalashtirish, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi aloqa va integratsiyaning sustligi, ta'lim subyektlari faoliyatidagi tarqoqlik hududda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning

qondirilmashligi va ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'lgan. Shundan kelib chiqqan holda institut Toshkent viloyatida pedagogik ta'lim innovatsion klasterini yaratish bilan bog'liq yangi tizimni o'zining ustuvor strategik yo'nalishi sifatida belgilab oldi va shu tizim asosida muayyan ishlarni amalga oshirdi. Ushbu tizim yengil sanoat, qishloq xo'jaligining qator tarmoqlari hamda iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlarida samarali hisoblangan klaster usulini ta'lim jarayoniga tatbiq etishni nazarda tutadi. Darhaqiqat, ishlab chiqarish tarmoqlarida xomashyoni yetishtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirish hamda uni realizatsiya qilish ketma-ketligi zanjiri mavjud bo'lib, ushbu ketma-ketlik pedagogik ta'lim tizimida ham inson kapitali ko'rinishida mavjud. Bu esa ishlab chiqarishda samarali bo'lgan klaster modelini ta'lim tizimiga joriy etish nazariy jihatdan mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Pedagogik ta'lim rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari o'rtasida uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalaridan foydalanish kabi yo'nalishlarda xususiylashadi.

Quyidagilar klaster tizimining subyektlari sifatida ishtirok etadi:

- talabalar, magistrantlar va doktorantlar pedagogik amaliyot o'taydigan, ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan o'quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o'taydigan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari;
- ta'limning turli darajalaridagi yangilanishlarga muvofiq ravishda kattalarning qo'shimcha ta'limi tizimi muassasalari, bolalar va o'smirlarning maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;
- hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan va uni belgilaydigan ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;
- pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;
- xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar.

Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda har bir subyekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish yuritadi. Klaster tizimi subyektlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma'naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta'siri hamda ahamiyatini kengaytiradi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri aloqadorlik, uzviylik, izchillik, vorisiylik, zamonaviylik, yo'naltirilganlik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi.

Pedagogik ta'lim klasteri faoliyatining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- pedagogika sohasida samarali vorisiylikni ta'minlash va eng yaxshi o'quvchilarni pedagog kasbiga targ'ib qilish;
- pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini amaliyotga tayangan holda va manfaatdor subyektlar bilan samarali aloqasini intensiv ta'minlagan holda olib borish;
- bo'lajak ta'lim mutaxassislarini innovatsion tajribaga ega bo'lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish;
- yosh mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarni egallash davrini qisqartirish;
- talabalarni bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirok etishini ta'minlash;
- pedagogik ta'limda yangi avlod o'quv, o'quv-metodik, ilmiy adabiyotlar, vositalar va didaktik materiallar majmuasini yaratish;
- pedagogik ta'lim ilmiy, ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish;
- pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb masalalari atrofida intellektual resurslarni integratsiyalash;
- ta'lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlarini izlab topish va ta'limga tatbiq etish;
- ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish;
- pedagog kadrlarni tayyorlashda maktabgacha, o'rta ta'lim va OTM hamda boshqa talabgorlar bilan o'zaro tezkor qayta bog'lanish imkoniyatini yaratish;
- pedagogik ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlik, bog'liqlik va hamkorlik zaruriyatini ilmiy asoslash.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri quyidagi vazifalarni bajaradi:

- viloyatdagi ta'lim muassasalari uchun zamonaviy bilim va malakaga ega pedagog kadrlarni tayyorlash;
- ta'lim sifatini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish;
- pedagogika sohasida ilmiy faoliyatni izchil yo'lga qo'yish;
- ta'limning asosiy (darslik) va yordamchi (lug'atlar, qomuslar, elektron manbalar va b.) vositalari mazmun-mohiyatining ta'lim bosqichlari kesimidagi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;
- viloyatdagi ta'lim muassasalari o'qituvchilarining bilim saviyasidagi bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda muddatli o'quv kurslari tashkil qilish;
- umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitish bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilish maqsadida viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda ilmiy-amaliy seminarlar tashkil qilish;
- institutdagi professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar va tayanch oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy hamkorlikni kuchaytirish;
- umumta'lim maktablarida ilmiy tadqiqot olib borish layoqatiga ega o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish;
- pedagogika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish maqsadida yetakchi xorijiy OTMlarga stajirovkalarni amalga oshirish.

Ayni paytda, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri institutning asosiy ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilangan bo'lib, hozirda o'ttizdan ortiq professor-o'qituvchilar

mazkur ilmiy tadqiqot yoʻnalishida izlanishlar olib borishmoqda. Barcha saʼy-harakatlarimiz muhtaram Prezidentimiz qarorida belgilangan vazifalar ijrosini taʼliq taʼminlash, viloyatning pedagog kadrlarga boʻlgan ehtiyojini sifatli qondirish, sohaga ilgʻor xorijiy tajribalarni jalb qilgan holda zamonaviy raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Bu bilan institut jamoasi “Harakatlar strategiyasi”da belgilangan ustuvor yoʻnalish va vazifalarning ijrosini taʼminlash hamda hayotga tatbiq etilishida oʻzining kamtarona hissasini qoʻshgan boʻladi. Xulosa oʻrnida shuni alohida taʼkidlash lozimki, jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida pedagogik taʼlim innovatsion klasteri taʼlimda ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni taʼminlaydigan, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik muassasalarda toʻplangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlarni taʼlim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga yetib borishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdagi eng muhim tizim sifatida taqdim etilmoqda. Bunda taʼlim muassasalari va jamiyat boshqa manfaatdor tomonlarining oʻzaro uzviy va uzluksiz aloqasini taʼminlash, taʼlim jarayonining pirovard mahsuli – har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni yetishtirish va jamiyatga naf keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, maʼnaviy, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki kadrlar bilim saviyasi va raqobatbardoshligi iqtisodiy ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xoʻjaligi va jamiyatning boshqa sohalari taraqqiyoti va raqobatbardoshligining asosidir. Boshlagan har bir ishimizdagi sifat va samara aynan shu masala bilan chambarchas bogʻliqligini rivojlangan mamlakatlar tajribasi va qolaversa hayotning oʻzi yaqqol koʻrsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

www.ziynet.uz

MUNDARIJA

№	Maqola nomi	Sahifa
1	CHIZMACHILIK VA CHIZMA GEOMETRIYA FANLARINING BUGUNGI KUNDAGI MUAMMOLARI	4
2	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARINING TA'LIM SAMARADORLIGIDAGI O'RNI	8
3	BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHDA KROSSVORDLARLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	11
4	ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВОООБРАЖЕНИЯ В ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКЕ	14
5	CAN, COULD, MAY, MIGHT, WOULD MODAL FE'LLARINING ILTIMOS, RUXSAT, TAKLIF MA'NOLARIDA QO'LLANISHI	18
6	INFORMATIKANI O'QITISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	21
7	KIMYONI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR	30
8	BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI QULAYLIKLARI	36
9	MAKTABLARDA KIMYO FANINING O'QITISH METODIKASI	40
10	DEVELOPMENT OF MEASURES TO IMPROVE THE RECLAMATION OF PASTURES	46
11	ОЦЕНИВАНИЕ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ УРОВНЯ И РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ	52
12	PON TEXNOLOGIYASI STANDARTLARI	55
13	БОДОМНИНГ ТЕШИКЛИ ДОҒЛАНИШ КАСАЛЛИГИГА ҚАРШИ ФУНГИЦИДЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ЎРГАНИШНИНГ АХАМИЯТИ	60
14	МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ УСТНОЙ РУССКОЙ РЕЧИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУППАХ	66
15	METALLAR VA METALLMASLAR	70
16	INTERTEKSTUALLIKNING YOZUVCHI IJODIDAGI O'RNI	74
17	THE CONTRIBUTION OF INDIVIDUAL LINGUISTIC CULTURES TO FORM THE LEXICAL SYSTEM OF THE ENGLISH LANGUAGE	81
18	THE TYPES OF LOANS WORDS, THEIR NATURALIZATION IN ENGLISH AND ITS ROLE IN COMMUNICATION	86
19	BIR IZLI METROPOLITEN TONNEL QOPLAMASI HISOB	92
20	MAKTABDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA LOYIHA ASOSIDAGI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI	95
21	ДАВЛАТНИНГ ТАШҚИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА АМИР ТЕМУР ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАНИЛГАН ЧОРА-ТАДБИРЛАР	99
22	ЭФФЕКТИВНЫЙ СПОСОБ ОЦЕНКИ ШЕРОХОВАТОСТИ	113
23	РАСЧЕТ МАКСИМАЛЬНОГО ЗАЗОРА ДЛЯ УПРОЩЕННОЙ ГЕОМЕТРИИ КОНУСА САРТО	118

24	МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТГА ИЧКИ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ФОНД БОЗОРИНИНГ ЎРНИ	123
25	QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI SAVDO MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH	136
26	DAVLAT MOLIYASINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ SIYOSATINING O'RNI	142
27	MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	148
28	ИНФОРМАЦИЯ О ПРЕДЛОГАХ И СОЮЗАХ	152
29	MEHMONDO'STLIK VA TURIZM SANOATIDAGI BOSHQARUV SOXALARIDA GENDER XILMA-XILLIGI	156
30	MILLIY KORPUSGA TURLI KASB EGALARINING EHTIYOJI	174
31	KIMYO FANI O'RGANISH METODLARI	180
32	SANOAT KORHONALARIDA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNI EKSPORT IMPORT STRATEGIYASI (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARI MISOLIDA)	185
33	PANDEMIYA OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA MAHALLIY BYUDJETLAR XARAJATLARINI BOSHQARISHDA BYUDJETLARA O'VAKOLATINI TAKOMILLASHTIRISH SIYOSATI	189
34	PRESENT CONTINUOUS AND PRESENT SIMPLE TENSE	192
35	FIZIK KATTALIKLAR VA ULARNING TURLARI	196
36	БАДИИЙ АДАБИЁТДА АЁЛЛАР ОБРАЗНИНГ ТАСВИРЛАШИ	200
37	ТАРИХ ФАНИНИ ЎРГАНИШДА ТАРИХИЙ МАНБАШУНОСЛИК ФАНИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА УНИНГ ПРЕДМЕТИ	205
38	TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	216
39	EDUCATION SYSTEM NOWADAYS	220
40	IJTIMOIIY HIMOIYAGA MUHTOJ BOLALAR TA'LIM-TARBIYASI BO'YICHA YANGI TIZIM	225
41	LINGUO-RHETORICAL EXPLICATION OF SPEECH EMOTIONS IN ADVERTISING	234
42	TEACHING IDIOMS AND SET EXPRESSIONS FOR ESL LEARNERS	240
43	PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERI_ EHTIYOJ, ZARURAT, NATIJA	247
44	ПОВЕРХНОСТНОЕ УПРОЧНЕНИЕ ДЕТАЛЕЙ, ВОССТАНОВЛЕННЫХ НАПЛАВКОЙ БОРИРОВАНИЕМ	255
45	PEDAGOGIKA FANINING METODOLOGIYASI	259

***Note!**—Pedagogs | articles and numbers in the legal, medical, social, scientific journal, information in classes, information rights and the correct authorities are responsible for the accuracy of the authorities.*

Editor in chief
Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Executive Secretary
Abdurahmonov Boburjon

Preparing for publishing
Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li

—Pedagogs | legal, medical, social, scientific journal, 31-january, 2022-years. —
Rishtan city: Pedagog, 2022.